

Xalqaro investitsiyalarni jalg qilishda iqtisodiy zonalarning roli

Alisher Abdukarim o‘g‘li Soliyev
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Maqolaning mazmuni xalqaro investitsiyalarni jalg qilishda iqtisodiy zonalarning xalqaro investitsiyalarni jalg qilishdagi o‘rni, ularning turlari, rivojlanish mexanizmlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganadi. Mamlakatimiz tajribasi, shu bilan bir qatorda, xalqaro amaliyotdagi ilg‘or tajribalar tahlil qilinib, takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur ilmiy ishda iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalg etishda samarali vosita sifatida baholangan. Mamlakatimizda va bir qator xorijiy mamlakatlar (Xitoy, BAA, Polsha) tajribasi asosida amaliy tahlil o‘tkazilgan. Xalqaro investitsiyalarni jalg qilishda iqtisodiy zonalar orqali TXI hajmini oshirishga qaratilgan taklif va strategiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro investitsiyalarni jalg qilishd, iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, sarmoya siyosati, investorlarni rag‘batlantirish, xorijiy investitsiya, TXI, infratuzilma, soliq imtivozi, hududiy rivojlanish, investor, klaster

The role of economic zones in attracting international investments

Alisher Abdukarim oglu Soliyev
Bukhara International University

Abstract: The content of the article studies the role of economic zones in attracting international investments, their types, development mechanisms and performance indicators. The experience of our country, as well as best practices in international practice, is analyzed, and proposals and recommendations for improvement are developed. In this scientific work, economic zones are evaluated as an effective tool for attracting foreign investments. A practical analysis was conducted based on the experience of our country and a number of foreign countries (China, UAE, Poland). Proposals and strategies aimed at increasing the volume of FDI through economic zones in attracting international investments are developed.

Keywords: attracting international investment, economic zone, free economic zone, foreign direct investment, investment policy, investor incentives, foreign investment, FDI, infrastructure, tax incentives, regional development, investor, cluster.

KIRISH

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugunga kunga kelib dunyo iqtisodiyotida barqaror o'sish uchun yangi investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi ish o'rinalini yaratish zarurati muhim o'rin egallagan. Xalqaro investitsiyalar, o'z navbatida, nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilishni, balki ularning samarali ishlatalishi va ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va boshqa sohalarda rivojlanish uchun sharoitlar yaratishi ham o'z ichiga kiradi. Shu bilan bir qatorda, investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Bu jarayonda davlatning roli juda katta bo'lib, u investitsiya qoidalarini soddalashtirish, soliqlarni kamaytirish va investitsiyalarning xavf-xatarlarini minimallashtirish orqali investitsiya muhitini takomillashtirishga hissa qo'shishi muhim. Investorlar uchun aniq va barqaror qonunchilik bazasi, infratuzilma va xizmatlar ko'rsatishning yuqori darjasini muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilishning samarali usullari, investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri va samaradorligini baholash usullari tahlil qilinib kelinmoqda. Bunda investitsiyalarni jalb qilish jarayoni, mamlakatlar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim. Bunda barchasi, davlatlar uchun global iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozonish va rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish masalalari har bir davlat uchun dolzarb va muhim o'rin tutadi. Bu maqola, shu to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam berishi va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlanmoqda. Bunda raqobatbardosh bo'lish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalarning oqilona va maqsadli jalb qilinish muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Hozirda globallashgan dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish butun dunyo mamlakatlari uchun asosiy maqsad bo'lib kelmoqda. Bunday iqtisodiy o'sishga bir qancha omillar vositasida erishib kelinmoqda. Bunday omillar orasida eng muhimlari - iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb etish kerk. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli asarida iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishish lozimligini alohida ta'kidlab o'tganlar1. Iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy

investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotni yuksalti rishda muhim ahamiyatga ega. Shularni e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, har bir mamlakatning rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiyaviy jarayonlarga va investitsiyaviy siyosatga bog'liqdir bo'lib kelmoqda. Xozirda globallashuv sharoitida davlatlar o'z iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy zonalar xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va biznes yuritishdagi to'siqlarni kamaytirish orqali investitsiyalar oqimini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ham oxirgi yillarda bu yo'nalishda sezilarli islohotlarni erishib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda Mamlakatda bir nechta erkin iqtisodiy zonalar (EEZ) tashkil etilgan bo'lib, ular orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi ortib kelmoqda. Xalqaro investitsiyalarni jalg qilishda iqtisodiy zonalarning rolini nazariy va amaliy jihatdan o'rghanish hamda O'zbekistondagi mavjud iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Iqtisodiy zonalarning nazariy asoslarini o'rghanish, xalqaro amaliyotda iqtisodiy zonalarning investitsiyalar jalg qilishdagi o'rni Mamlakatimizda iqtisodiy zonalar faoliyatini baholash iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishva xalqaro investitsiyalar jarayoni iqtisodiy zonalar orqali investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlari ishda O'zbekiston iqtisodiy zonalarining TXI jalg etishdagi o'ziga xos mexanizmlari chuqur o'rghaniladi hamda mavjud kamchiliklar asosida amaliy tavsiyalar taklif etiladi va iqtisodiy zonalar - bu ma'lum bir geografik hududda maxsus tartib, soliq, bojxona, valyuta va boshqa yengilliklar asosida faoliyat yurituvchi hududlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rnlari yaratish va xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'lib kelmoqda shu qatorda dastlabki iqtisodiy zonalar 20-asrning o'rtalarida shakllana boshlagan xususan, Irlandiyada Shannon erkin savdo zonası (1959-yil) va Xitoyda Shenzhen iqtisodiy zonasi (1980-yil) bu borada eng mashhur tarixiy misollar sifatida qayd etiladi. Ularning muvaffaqiyati boshqa ko'plab mamlakatlarga ham bunday zonalarni joriy qilish zaruratini ko'rsatdi va iqtisodiy zonalar turli mezonlar asosida tasniflanadi bularning eng asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Turi	Xususiyatlari
Erkin iqtisodiy zona (EEZ)	Soliq va boj imtiyozlari mavjud, port/eksportga ruxsat beriladi
Sanoat-parklari	Maxsus texnologik infratuzilma bilan ta'minlangan hududlar
Eksportni qayta ishlash zonaları (EPZ)	Faqat eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish uchun tashkil etiladi
Innovatsion texnoparklar	Ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlammalarni amaliyotga tafbiq qilishga yo'naltirilgan

Turi	Xususiyatlari
Maxsus iqtisodiy zonalar(SEZ)	Kengaytirilgan huquqiy maqom va yirik sarmoyalar uchun imkoniyatlar yaratiladi

Ushbu zonalarning har biri o‘zining aniq maqsadiga ega bo‘lib, ular mamlakatning iqtisodiy strategiyasiga mos ravishda tanlanadi. Xalqaro investitsiyalar, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biridir. BMTning UNCTAD tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi 150 dan ortiq davlatda 5,400 dan ortiq iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, ularning barchasi TXI oqimini jalb qilishga xizmat qilib kelmoqda. Xalqaro Iqtisodiy zonalar TXI jalb qilishda asosiy afzallikkarni soliq imtiyozlari (korporativ soliqdan ozod etish, QQS bo‘yicha yengilliklar) valyuta operatsiyalari erkinligi tayyor infratuzilma (yer, bino, energiya tarmoqlari) investorlarga xizmat ko‘rsatish markazlari orqali ma’muriy jarayonlarning soddalashtirilishi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik kafolati hisblanadi, jahon banki va UNCTAD tadqiqotlariga ko‘ra, TXI jalb qilish bo‘yicha muvaffaqiyatli iqtisodiy zonalar mavjud mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi o‘rtacha 30-40% ga oshgani aniqlandi. Iqtisodiy zonalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri zonalarning samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi, TXI hajmining o‘sish, ish o‘rinlari sonining ortishi, eksport hajmining ko‘payishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarining integratsiyalashuvi, innovatsion faoliyatning kuchayishi hisoblanadi masalan, Xitoyning Shenzhen zonasasi tashkil etilgach, 10 yil ichida TXI hajmi 40 baravar oshdi, bunday zonalar yirik investorlar uchun "start nuqtasi" bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston vaboshqa davlatlar tajribasida iqtisodiy zonalar faoliyatining amaliy tahlili, mamlakatimizda iqtisodiy zonalar tashkil etilishi 2008-yildan boshlab bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilgan. Boshlang‘ich tajriba sifatida "Navoi" erkin industrial-iqtisodiy zonasasi tashkil etilgan. Keyinchalik "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G‘ijduvon", "Xazorasp", "Qoqon" kabi zonalar faoliyat yurita boshladи.

Hozirgi kunda respublika bo‘yicha 23 ta faoliyat yuritayotgan iqtisodiy zona mavjud bo‘lib, ularda quyidagi yengilliklar ishlab chiqilgan, daromad solig‘i, yer solig‘i, mulk solig‘i, suv resurslari uchun soliqdan ozod etish (3 yildan 10 yilgacha) import qilinadigan texnologik uskunalar uchun bojxona bojlari bekor qilingan valyutani erkin olib kirish vachiqarish imkoniyati haqida statistik ma’lumotlar quyidagilar;

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023
TXI hajmi (mln. USD)	1 154	1 830	2 478	3 100
EEZdagи faol korxonalar soni	215	307	412	533
Ish o‘rinlari soni (ming)	19,4	23,7	29,1	34,8

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi; Statistika agentligi (2024) Bu zonalarda xorijiy sarmoya asosida Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya, Germaniya va boshqa davlatlar korxonalari faoliyat yuritmoqda. Jumladan,

"Navoi" EEZda Germaniyaning "Knauf", Turkiyaning "Sanko", Xitoyning "ZTE" kompaniyalari yirik sarmoya kiritgan. Xalqaro tajriba: Xitoy, BAA va Polsha misolida iqtisodiy zonalar samaradorligi va Xitoy (Shenzhen modeli) Shenzhen 1980-yilda birinchi erkin iqtisodiy zona sifatida tashkil etilgan va hozirda Xitoyning eng yirik texnologik va sanoat markaziga aylantirilga. Shenzhenda TXI hajmi 40 yil ichida 1000 baravardan ortiq oshgan Huawei, Tencent, ZTE kabi yirik kompaniyalar zonadan boshlab rivojlangan, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shenzhen modeli Xitoyning "birinchi to'lqin" zonalari (Zhuhai, Xiamen, Shantou)ni ham shakllantirishga asos bo'ldi. Birlashgan Arab Amirliklari (Jebel Ali Free Zone - JAFZA)da iqtisodiy zonalar, ayniqsa JAFZA, 1985-yildan boshlab tashkil etilgan va hozirda 8000 dan ortiq xorijiy kompaniyalarni o'ziga jalb etgan. JAFZA muvaffaqiyatining asosiy sabablaridan biri bo'lib kelmoqda va 100% xorijiy mulkka ruxsat berilishi soliq va boj imtiyozlari strategik geografik joylashuv (Dunyo yuk tashish yo'llarining chorrahasida). Polshada 14 ta erkin iqtisodiy zona mavjud bo'lib, ular 1990-yillarda tashkil etilgan. Polshaning yevropa ichki bozoriga yaqinligi va yengil tartib-qoidalari TXI oqimini oshirishga sabab bo'lib kelgan. 2023-yil holatiga ko'ra, iqtisodiy zonalarning YIMdagi ulushi 13% dan oshdi.

Tahliliy solishtirma Mamlakatimiz va xorij zonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari shulardan iborat;

Ko'rsatkich	O'zbekiston (2023)	Xitoy (Shenzhen)	BAA (JAFZA)	Polsha
TXI hajmi (mlrd. USD)	3,1	30+	120+	15
EEZlar soni	23	18	40+	14
Soliq imtiyoz muddati	3-10 yil	5-15 yil	Cheksiz	3-6 yil
Eksport ulushi (%)	18	70+	80+	55
YIMga hissasi (%)	5-6	25+	35+	13

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiy zonalari son jihatidan kengaymoqda, biroq samaradorlik va TXI oqimi bo'yicha hali xalqaro andozalardan orqada qolmoqda. Bu esa zamonaviy infratuzilma, huquqiy kafolatlar va investorlar bilan ishslash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekistondagi iqtisodiy zonalar faoliyatida mavjud muammolar so'nggi yillarda iqtisodiy zonalar soni oshganiga qaramay, ularning ko'plab faoliyat ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga yetmayapti va quyidagi asosiy muammolar aniqlangan, Infratuzilmaning yetarli emasligi, ba'zi zonalarda elektr energiyasi, gaz, suv va yo'llar bilan ta'minlash sust bu esa sarmoyadorlar uchun jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda. Investorlarga xizmat ko'rsatish tizimining zaifligi va byurokratik jarayonlar hali to'liq soddalashtirilmagan, "bir darcha" tizimi barcha zonalarda samarali ishlamaydi bu es yaxshi tayyorlangan ishchi kuchining yetishmasligi olib keladi hamda texnik malakaga ega xodimlar taqchilligi zonalarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tomonidan qayta-qayta tilga olinmoqda. Huquqiy va soliq kafolatlarining uzoq muddatda barqaror emasligi esa investorlarga berilgan imtiyozlar siyosiy o'zgarishlarga bog'liq holda o'zgarib ketishi mumkin

bo‘lgan xavf sifatida baholanmoqda. Shuningdek zonalar faoliyatining monitoring va baholash tizimi yo‘qligi har bir zonaning samaradorligi bo‘yicha yagona ochiq ma’lumotlar bazasi mavjud emasligini bildiradi. Investitsiyalarni jalg qilishni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ushbu muammolarga asoslangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik (PPP) modelini joriy qilish EEZlarda infratuzilma (yo‘l, energiya, logistika) loyihibalarini xususiy sektor ishtirokida amalga oshirish. Bu model Xitoy va Polsha tajribasida yuqori natija bergen. Zonalar boshqaruvini markazlashtirish va raqamlashtirish har bir zonaning faoliyati yagona onlayn platforma orqali monitoring qilinishi “Smart-Zona” texnologiyasi orqali real vaqt rejimida investorlar, bojxona, soliq va boshqa xizmatlar o‘zaro integratsiyalashadi. Kafolatlangan huquqiy muhitni mustahkamlash xalqaro investitsiya shartnomalarida xalqaro arbitraj kafolatlarini belgilash mtiyozlarni qonun bilan mustahkamlab, uzoq muddatga kafolatlash Kadrlar tayyorlash va ularni EEZlarga yo‘naltirish dasturini ishlab chiqish va kollej va oliv o‘quv yurtlarida zonalar ehtiyojiga mos kadrlar tayyorlash hamda maxsus “EEZ stipendiya” va “praktikantlik” dasturlarini joriy qilish. Maxsus marketing va brending siyosatini amalga oshirish har bir zonani xalqaro maydonda targ‘ib qilish uchun raqamli platforma va ko‘rgazmalarda qatnashish shu bilan bir qatorda Mamlakat ichida “Made in EEZ Uzbekistan” brendini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy zonalarni kelgusida yanada samarali qilish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar muhim hisoblanadi Iqtisodiy zonalarni klaster asosida shakllantirish Masalan, “Urgut” zonasasi - farmatsevtika klasteri, “Navoi” - logistik va aviatsiya markazi, “Angren” - kimyo sanoati markazi sifatida ixtisoslashtirilishi mumkin. Yangi texnologiyalar va yashil energiya asosida faoliyatni kengaytirish Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi, yashil energiyaga yo‘naltirilgan zonalarni tashkil etish (“green SEZ” modeli). Hududiy tenglikni ta’minalash zonalarni faqat markazlarda emas, balki Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Sirdaryo kabi chekka hududlarda rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni muvozanatlashtirish.

Shu bilan bir qatorda, erkin qitisodiy hududlarning turli ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda. Xususan, xorijiy investorlarni jalg qilishda ilg‘or texnologiyalarning o‘tkazilishini ta’minalash maqsadida, Xitoy, Gonkong maxsus iqtisodiy hudud (EIH)ni tashkil etish va yuqori texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi inkubatorlardan samarali foydalanib kelinganligi aytilmoqda. Bundan yuqori texnologik sohalarning rivojlanishini qo‘llab quvvatlashda bunday zonalarda soliq imtiyozlaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Hozirda EIHLarning yangi modeli iqtisodiyotni uzoq istiqbolli, kompleks rivojlanishini ta’minalashga qaratilmoqda. Bunda yuqori texnologik tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv ko‘zda tutilib kelinmoqda. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnallari. 2022 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022: 6.698 www.sharqjurnali.uz 6 “Global Cities Investment Monitor 2018” monitoring

tadqiqotlariga ko'ra, qator investitsion kriteriyalarni shaharning investitsion jozibadorligini oshirishning muhim sharti sifatida ko'rsatadi, siyosiy barqarorlik va yuridik xavfsizlik, infrastruktura, personal bilan ishlash ko'nikmalari, iqtisodiy o'sish va bozorning ochiqligi, turmush darajasi, oylik va soliqlar darajasi, real ko'chmas mulkning mavjudligi va qiymati, ta'lim sifati, turmush sifati, tadqiqotlar va innovatsiyalar sifati shular jumlasidan. Keltirib o'tilgan kriteriyalardan aytish mumkinki, investorlarni jalg qilishda yuqori iqtisodiy o'sish, iste'mol qobilyatini ko'tarish, malakali kadrlarning mavjudligi va litsenziyalash jarayonlarining soddaligi shaharlarda investitsion muhitning yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Dunyo tajribasini tahlil qilsak, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish maqsadida Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Braziliya va Meksika tashqi savdo va iqtisodiyotni izchil liberallashtirishdan boshladilar, shu jumladan chet elliklarga ilgari yopiq hisoblangan tarmoqlarda avtomobilsozlik, elektronika, metallurgiya, oziq-ovqat sanoati va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun ruhsat berildi. Shuningdek, investitsiyalarni jalg qilishda davlat aralashuvini minimallashtirishdan ham keng foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda rivojlanib kelayotgan davlatlar eksport ishlab chiqarish zonalarini xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni tashkil etadi. Bunday eksport zonalar uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yaratishda kerakli import mahsulotlariga boj qo'yilmay kelinmoqda. Buni yaqqol Singapur tajribasida ko'rish mumkin. Bu bilan bir qatorda, Xitoy va Germaniyada hududlarning aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadida investitsion salohiyatini oshirish orqali doimiy ravishda turli hududlarda investitsion va savdo-iqtisodiy yarmarkalar tashkil etish tajribasidan keng foyadalanib kelinmoqda. Mamlakatdagi biznes yuritish sharoitlari va holatida Investorlarni jalg qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yetakchi o'rirlarni, "Doing Business 2020" reytingida Yangi Zellandiya, Singapur, Gonkong, Daniya, Koreya, AQSH egallab kelmoqda. 190 ta mamlakat ichida 69 o'rinni tadbirkorlik muhitini yaxshilagan top 20 ta mamlakat qatoriga O'zbekiston egallab, o'tgan-yilidan 7 ta pog'onaga ko'tarildi va kirib kelinmoqda. Shuni aytish mumkinki, global miqyosda kechayotgan proteksionizm siyosati, dizintegratsiya jarayonlari, AQSH va Xitoy, Rossiya o'rtasidagi savdo urushlari, siyosiy beqarorliklar investitsiya oqimining o'sish tezligini keskin qisqarib ketdi. Bunday salbiy o'zgarishlar ayniqsa AQSHda va Yevropa mamlakatlarida yanayam ko'proq kuzatilmoqda. Investitsion o'sish Osiyo mamlakatlarida esa, aksincha yuz bermoqda. Xozirgi kunda erkin iqtisodiy hududlar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish dastagiga aylanib kelmoqda. Bu kabi qulay geografik joylashuv, investorlar huquqlarining himoya qilinganligi, ochiq va shaffof investitsion siyosat, soliq imtiyozlari va korrupsiya va byurokratik to'siqlarning cheklanganligi kabi qator ko'rsatkichlar investitsion jozibadorlik darajasiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki investitsiyalarni

jalb qilish bo'yicha, har bir mamlakat uchun investitsiyani jalb qilish vositalari, instrumentlari turlichadir. Oqimining Kapital ko'payishini ta'minlovchi universal yagona modeli yo'q. Siyosatda Investitsion muayyan iqtisodiy sharoitlaridan har bir mamlakatning o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi maqsadidir. Bunday bo'lishiga qaramay barcha islohotlar asosan uch yo'nalishda olib borib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda, infratsukturani tayyorlash va zaruriy obyektlar, malakali kadrlarni tayyorlash va byurokratik to'siqlarni yo'q qilish investitsiyalarni jalb qilishning birinchi o'rindadir. Bu bilan bir qatorda, TTXIni jalb qilishda zamonaviy jahon tendensiyalarini ham hisobga olinishi kerak. Xozirda biotexnologiya "yashil" iqtisodiyot, raqamlashtirish, IT va dasturiy ta'minot kabi yo'nalishlar xorijiy investitsiyalar uchun eng jozibali yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Xorijiy investitsiyalarning to'g'ridan to'g'ri jahon tajribasini tahlil qilgan holda, mamlakatimizni investorlar uchun jozibadorligini oshirish uchun investitsion muhitni yaxshilash bilan birgalikda yuqorida sanab o'tilgan istiqbolli sohalarni faol qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish kerak. Shu bilan bir qatorda TTXIni faol investor va yangiliklardan investorlarni xabardor bo'lishini ta'minlash kerak hamda mamlakatlari bilan ikkitomonlama hamkorlik aloqalarini yaxshilash lozim.

XULOSA

Ushbu maqolam davomida xalqaro investitsiyalarni jalb etishda iqtisodiy zonalarning o'rni chuqur o'rganilishi, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy zonalar to'g'ri siyosat va mexanizmlar bilan yuritilsa, ular TXI oqimini ko'paytirish, sanoatni rivojlantirish va hududiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNCTAD World Investment Report 2023. Geneva: United Nations.
2. World Bank (2022). Special Economic Zones: Lessons from the Global Experience.
3. Krugman P., Obstfeld M. (2018). International Economics. Pearson Education.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-oktabrdagi PQ-4874-soni qarori "Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida".
5. Statistika agentligi (2024). "O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar statistikasi".
6. Harrison, A., & Rodríguez-Clare, A. (2010). "Trade, foreign investment, and industrial policy for developing countries." Handbook of Development Economics.
7. Glickman, N. J. (1987). The role of special economic zones in development strategy. International Regional Science Review.
8. Ministry of Investments, Industry and Trade of Uzbekistan. Annual Reports, 2021-2023.

9. Qodirov, F., & Ergasheva, H. (2024). INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA UNING SAMARADORLIGI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(11), 64-69.
10. Rahmonova, S. B. Q. (2022). TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH-IQTISODIY TARAQQIYOT GAROVI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(4), 186-192.
11. Khoshimov, J. (2023). IQTISODIYOTGA TO ‘G ‘RIDAN-TO ‘G ‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH HAJMINI OSHIRISH YO ‘LLARI. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 93-99.
12. N.B.Abdulazizova. (2022). XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING JAHON TAJRIBASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI. XXI ascp: фан ва таълим масалалари. 1. 1-8.
13. Болтаева, М., & Суюнов, А. (2023). Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo ‘yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan ko ‘rsatkichlar (Jizzax viloyati misolida). Информатика и инженерные технологии, 1(2), 206-209.